



“MOJAROLI FOYDALI QAZILMALAR” SIYOSATI

1. Kirish

Maqsad

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” aksiyadorlik jamiyati (“O‘zTMK” AJ) xalqaro e’tirof etilgan mas’uliyatli ta’minot standartlariga muvofiq minerallarni xarid qilish faoliyatini mas’uliyatli, shaffof va barqaror tarzda yuritish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Ushbu Mojaroli foydali qazilmalar bo‘yicha siyosat “O‘zTMK” AJning IHTTning (OECD -**Organisation for Economic Co-operation and Development**) Mojarolardan jabrlangan va xavfi yuqori bo‘lgan hududlardan foydali qazilmalarning mas’uliyatli yetkazib berish zanjirlari bo‘yicha tegishli tekshirish uslubiy ko‘rsatmalari (IHTT ko‘rsatmalari), Mas’uliyatli minerallar tashabbusi (RMI) talablari va boshqa xalqaro miqyosda tan olingan mas’uliyatli xarid tizimlariga muvofiq, xavflarga asoslangan yetkazib berish zanjirini tegishli tekshirish (due diligence) tizimini joriy etish bo‘yicha majburiyatlarini belgilaydi.

Ushbu Siyosat “O‘zTMK” AJning jahon bozorida ishonchli, barqaror va shaffof hamkor sifatidagi obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, kompaniyaning faqat mojarolardan xoli (conflict-free) bo‘lgan hamda har doim “**OECD Due Diligence Guidance for Responsible Supply Chains of Minerals from Conflict-Affected and High-Risk Areas**”, 3-nashri talablariga javob beradigan minerallarni xarid qilish bo‘yicha majburiyatini belgilaydi. Mazkur majburiyat doirasida “O‘zTMK” AJ IHTT Yo‘riqnomasining I-ilovasida bayon etilgan **5 bosqichli Due Diligence** (tegishli tekshiruv) tizimini amalga oshiradi.

“O‘zTMK” AJ butun yetkazib berish zanjiri bo‘ylab minerallarni qazib olish, tashish va ular bilan savdo qilish bilan bog‘liq bo‘lgan mavjud va potensial salbiy oqibatlarni aniqlash, baholash, oldini olish, yumshatish va ular bo‘yicha hisobot berish majburiyatini oladi.

“O‘zTMK” AJ yetkazib beruvchilar yoki mintaqalar bilan hamkorlikni faqatgina ularning Mojarolardan jabrlangan va xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda (CAHRA) faoliyat yuritayotganligi sababli avtomatik ravishda to‘xtatish siyosatiga amal qilmaydi. Buning o‘rniga, Jamiyat ishbilarmonlik aloqalarini davom ettirish, vaqtincha to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan oldin IHTT ko‘rsatmalariga muvofiq kengaytirilgan tegishli tekshirish choralari qo‘llaydi va xavflarni yumshatish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radi.

“O‘zTMK” AJ nodavlat qurolli guruhlarini har qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita qo‘llab-quvvatlashni, inson huquqlarining jiddiy buzilishini, poraxo‘rlikni, firibgarlik maqsadida ma’lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilishni, pul yuvishni yoki IHTT tegishli tekshirish ko‘rsatmalarining II-ilovasida taqiqlangan boshqa faoliyat turlarini qat’iyan man etadi.

Ushbu Siyosat Jamiyatning Yetkazib berish zanjiri bo'yicha siyosati, Yetkazib berish zanjirini tegishli tekshirish tizimi, CAHRA tartibi va Kontragentni bilish (KYC) tartibi bilan birgalikda qo'llaniladi, ular o'zaro hamkorlikda "O'zTMK"ning mas'uliyatli xaridlar boshqaruv tizimini tashkil etadi.

"O'zTMK" AJ mineral resurslardan noqonuniy foydalanishni, nodavlat qurolli guruhlarini moliyalashtirishni hamda mojarolardan jabrlangan va xavfi yuqori bo'lgan hududlarda (CAHRA) inson huquqlarining buzilishini qoralaydi. Jamiyat berish zanjirimiz shaffof, kuzatilishi oson va mojarolarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita moliyalashtiradigan 3TG minerallaridan (qalay, tantal, volfram va oltin) xoli bo'lishini ta'minlash majburiyatini oladi.

Hozirgi vaqtda "O'zTMK" AJ volfram konsentrati xomashyosi yetkazib berilishini faqat O'zbekiston Respublikasida joylashgan o'zining sho'ba korxonasiga tegishli kondan amalga oshirishiga qaramay, Jamiyat foydalanilayotgan xomashyoning kelib chiqishini tasdiqlash uchun tegishli boshqaruv tizimiga ega bo'lish zarurligini e'tirof etadi hamda ta'minot jarayonlarining shaffofligi va ularning xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash majburiyatini oladi.

Vazifa

OECD Yo'riqnomasining II-ilovasida hamda qalay (tin), tantal (tantalum) va volfram (tungsten) bo'yicha Qo'shimchada (Supplement) keltirilgan tavsiyalar asosida "O'zTMK" AJ Ta'minot zanjiri bo'yicha Due Diligence (tegishli tekshiruv) dasturini joriy etgan. Mazkur dastur Tijorat masalalari bo'yicha Boshqaruv raisi o'rinbosari tomonidan nazorat qilinadigan boshqaruv tizimining tarkibiy qismi bo'lib, Bosh direktor hamda Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan.

"O'zTMK" AJ xarid faoliyatini mazkur Dastur talablariga muvofiq amalga oshiradi hamda uning siyosatlariga rioya qiluvchi yetkazib beruvchilarni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, quyidagi faoliyat yoki harakatlarni sodir etgani aniqlangan yoki sodir etishda asosli gumon mavjud bo'lgan yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni rad etadi va/yoki ular bilan ishbilarmonlik munosabatlarini to'xtatadi.

1. Inson huquqlarining eng og'ir shakldagi buzilishlari, jumladan qiynoqlarning har qanday shakli, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi munosabat, majburiy mehnat, bolalar mehnatining eng og'ir shakllari, shuningdek jinsiy zo'ravonlik, harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlar kabi boshqa jiddiy inson huquqlari buzilishlari.
2. Davlatga qarashli bo'lmagan qurolli guruhlarini bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlash.
3. Kon maydonlarini, transport yo'nalishlarini va yetkazib berish zanjirining yuqori bo'g'inidagi ishtirokchilarni noqonuniy nazorat qiluvchi davlat yoki xususiy xavfsizlik kuchlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qo'llab-quvvatlash yoki ularga aloqador bo'lish.

4. Minerallarni qazib olish, savdosi, qayta ishlash, tashish yoki eksport qilish bilan bog'liq bo'lgan yoki undan kelib chiqadigan poraxo'rlik, firibgarlik yo'li bilan noto'g'ri ma'lumot taqdim etish, tovlamachilik hamda pul mablag'larini legallashtirish.
5. Soliqlar, yig'imlar va royalti to'lovlarini amalga oshirmaslik natijasida yuzaga keladigan salbiy ta'sirlar.

Qo'llanish doirasi

Mazkur Siyosat alohida shartnomalar va joylashgan hududidan qat'i nazar, barcha xodimlar, yetkazib beruvchilar, pudratchilar va biznes hamkorlarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu Siyosat "O'zTMK" AJ va uning sho'ba korxonalari tomonidan xarid qilinadigan yoki ishlab chiqarilishi bo'yicha shartnoma tuziladigan barcha asosiy volfram xomashyolarini qamrab oladi.

Shuningdek, ushbu siyosat mas'uliyatli minerallar tashabbusi (Responsible Minerals Initiative – RMI) tomonidan hisobot shakllarida ko'rsatilgan minerallarga nisbatan qo'llaniladi. Bular: volfram (tungsten), qalay (tin), tantal (tantalum) va oltin (gold).

"O'zTMK" AJda mas'uliyatli minerallar siyosati bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun mas'ul etib tayinlangan xodim mavjud bo'lib, u mazkur masalalar bo'yicha maslahat va tushuntirishlar beradi.

Sardor Murodov - ESG departamenti direktori

Email: s.murodov@uztmk.uz

Atamalar lug'ati

- **3TG:** qalay (tin), tantal (tantalum), volfram (tungsten) va oltin (gold).
- **CAHRA:** Mojarolardan jabrlangan va xavfi yuqori bo'lgan hududlar (Conflict-Affected and High-Risk Areas). Dodd-Frank qonunining 1502-bo'limida Kongo Demokratik Respublikasi (KDR) va unga qo'shni to'qqizta davlat nomlangan: Angola, Burundi, Markaziy Afrika Respublikasi, Kongo Respublikasi, Ruanda, Janubiy Sudan, Tanzaniya, Uganda va Zambiya. EI sanksiyalar reglamenti 2017/821 uchun foydalaniladigan CAHRA ro'yxatiga yuqoridagi mamlakatlar kiradi, ammo u qo'shimcha mamlakatlar bilan yangilanib boriladi. Amaldagi ro'yxatni www.cahraslist.net saytidan topish mumkin.
- **CMRT:** RMI tomonidan boshqariladigan va chiqariladigan Mojarli minerallar bo'yicha hisobot shablони (Conflict Minerals Reporting Template). Ushbu shablonda hisobot beriladigan minerallar 3TG hisoblanadi.
- **EMRT:** RMI tomonidan boshqariladigan va chiqariladigan Kengaytirilgan minerallar bo'yicha hisobot shablони (Extended Minerals Reporting Template). Ushbu shablonda hisobot beriladigan minerallar kobalt, sluda (mica), mis, grafit (tabiiy), litii va nikeldir.
- **IHTT (OECD):** Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development).

- **RMAP:** Mas'uliyatli minerallarni kafolatlash jarayoni (Responsible Minerals Assurance Process).
- **RMI:** Mas'uliyatli minerallar tashabbusi (Responsible Minerals Initiative).

A'zolik

“O‘zTMK” AJ ta'minot faoliyati va tegishli siyosatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan soha bo'yicha dolzarb ma'lumotlardan doimiy ravishda xabardor bo'lish hamda ma'lumotlarni faol ravishda almashish maqsadida quyidagi tarmoq tashkilotlaridagi a'zolik va hamkorlik munosabatlarini qo'llab-quvvatlaydi:

1. Kam uchraydigan metallar savdosi assotsiatsiyasi (Minor Metals Trade Association – MMTA).
2. Xalqaro volfram sanoati assotsiatsiyasi (International Tungsten Industry Association – ITIA).

2. Mas'uliyatlar

Rahbariyat

Yuqori darajadagi rahbariyat, direktorlar va menejerlar Jamiyat tomonidan “O‘zTMK” AJga bevosita tatbiq etiladigan barcha qonun hujjatlari va me'yoriy talablarning bajarilishini ta'minlashi shart. Shuningdek, ular o'z mijozlariga mijozning mahalliy yurisdiksiyasida amal qiluvchi qonun hujjatlari va me'yoriy talablariga, jumladan AQShning “Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act” Qonunining 1502-bo'limi hamda Yevropa Ittifoqining Mojaroli minerallar to'g'risidagi Reglamenti (EU 2017/821) talablariga rioya etish imkoniyatini yaratishi lozim.

Rahbariyat, shuningdek, quyidagini amalga oshiradi:

- mijozlarga ular tomonidan so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etish orqali ularni qo'llab-quvvatlaydi;
- RMI hisobot shakllarining yangi versiyalari chiqarilganda tegishli bo'linmalarni xabardor qiladi;
- aniqlangan xavflarni bartaraf etish va kamaytirish bo'yicha yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qiladi;
- ushbu Siyosat talablariga takroran muvofiqlashishni rad etgan yoki talab etilgan ma'lumotlarni taqdim etmagan yetkazib beruvchilar bilan savdo munosabatlarini to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi;
- minerallar bo'yicha hisobot berish faoliyatini Jamiyatning yillik barqaror rivojlanish hisobotiga kiritadi.

Xodimlar

Jamiyatning barcha xodimlari so'rov yuborilganda ta'minot zanjiri to'g'risidagi

ma'lumotlarni aniq va to'liq rasmiylashtirish orqali shaffoflikni ta'minlashga ko'maklashishlari lozim.

Tijorat departamenti va Сифатни назорат қилиш бўлими (QA) bo'limlari yetkazib beruvchilar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tizimlashtirish imkonini beruvchi tizimlarni yuritishi hamda minerallar bo'yicha aniq hisobotlarni tayyorlashni ta'minlashi kerak.

CMRT, EMRT yoki minerallar bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni talab qiluvchi individual mijoz so'rovlari Kompaniya tomonidan o'z vaqtida ko'rib chiqilishi va bajarilishi lozim, chunki ta'minot zanjirining uzunligiga qarab yetkazib beruvchilardan javob olish muddati kechikishi mumkin.

3. Yetkazib beruvchilarga qo'yiladigan talablar

UzTMK suppliers are required to:

- Mazkur Siyosat talablariga muvofiq siyosat va boshqaruv tizimini joriy etish.
- IHTT ko'rsatmalariga muvofiq o'zlarining tegishli tekshiruvlarini (due diligence) o'tkazish;
- Yetkazib beruvchini tasdiqlash jarayonida yoki Kompaniyaning so'roviga binoan RMI CMRT va EMRT hisobot shakllarini to'ldirish va taqdim etish.
- So'rovga binoan mijozlarimiz tomonidan talab qilinadigan boshqa har qanday minerallar to'g'risidagi ma'lumotlarni, jumladan tariflar yoki sanksiyalar bilan bog'liq minerallar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish.
- Minerallar ta'minot zanjiri faqat RMAP kabi sohaviy dasturlar tomonidan auditdan o'tkazilgan va tasdiqlangan eritish korxonalari hamda rafinatsiya korxonalaridan kelib chiqadigan komponentlar yoki materiallarni yetkazib berishga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha choralar ko'rish.
- Mazkur Siyosat buzilishi holatlari to'g'risida "O'zTMK" AJni zudlik bilan xabardor qilish va zarur tuzatish choralari amalga oshirishga rozilik bildirish.
- "O'zTMK" AJ mijozlarini "Mojaroli minerallar" (Conflict Minerals) bo'yicha kompleks tekshiruv (Due Diligence) va oshkor qilish talablarini bajarishda faol qo'llab-quvvatlash majburiyatini oladi. Mazkur talablar AQShning "Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act" Qonunining 1502-bo'limida hamda AQSh Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi (U.S. Securities and Exchange Commission) tomonidan ushbu qonun asosida qabul qilingan tegishli me'yoriy hujjatlarda, shuningdek Yevropa Ittifoqining 2017/821-sonli Reglamentida belgilangan. Tegishli hollarda, "O'zTMK" AJ Qazib oluvchi sanoat tarmoqlarida shaffoflik tashabbusi (Extractive Industry Transparency Initiative – EITI) tamoyillari va mezonlarini amalga oshirishni qo'llab-

quvvatlaydi, shu jumladan yetkazib beruvchilarni EITI tamoyillarida belgilangan talablarga muvofiq to'lovlarni oshkor qilishga undaydi.

4. Doimiy takomillashtirish

Barqaror rivojlanish, sifat va me'yoriy talablarga muvofiqlik bilan bog'liq barcha jarayonlarda bo'lgani kabi, "O'zTMK" AJ minerallar bo'yicha hisobotlarni tayyorlash jarayonlarida amalga oshiriladigan kompleks tekshiruv (Due Diligence) tizimini doimiy takomillashtirish tamoyiliga amal qiladi. Kompaniya, shuningdek, o'z yetkazib beruvchilarini ta'minot zanjiridagi ish faoliyatini doimiy takomillashtirish tamoyiliga amal qiladi.

5. Javobgarlik va talablarga rioya qilmaslik holatlari

Aniq va ishonchli ma'lumotlar, ayniqsa 3TG yoki boshqa minerallar bo'yicha hisobot berish bo'yicha qonuniy majburiyatga ega bo'lgan "O'zTMK" AJ mijozlari uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Barcha yetkazib beruvchilar "O'zTMK" AJga taqdim etayotgan ma'lumotlari uchun javobgardirlar va Jamiyatga yuboriladigan ma'lumotlarning to'g'ri bo'lishini ta'minlashlari shart. Bu "O'zTMK" AJ hujjatlarida hamda mijozlarga taqdim etiladigan ma'lumotlarda to'liq va aniq axborot aks ettirilishini ta'minlash uchun zarur.

"O'zTMK" AJ uchun talablarga nomuvofiqlik xavfini yuzaga keltiruvchi yetkazib beruvchilar Jamiyatning tasdiqlangan yetkazib beruvchilar ro'yxatidan chiqarilishi mumkin.

Barcha manfaatdor tomonlar - xodimlar, yetkazib beruvchilar va mijozlar - "O'zTMK" AJ tomonidan aniqlangan nomuvofiqlik holatlarini o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish imkonini ta'minlash uchun bunday holatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar berishga mas'uldirlar.

6. Murojaatlar va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi

UzTMK quyidagi elektron pochta manzili orqali doimiy ravishda nazorat qilinadigan murojaatlar va shikoyatlarni qabul qilish mexanizimini yuritadi: grievance_support@uztmk.uz Jamiyat yetkazib beruvchilarni, pudratchilarni, ta'minot zanjiridagi boshqa ishtirokchilarni hamda har qanday manfaatdor shaxslarni aniqlangan muammolar, xavotirlar yoki talablarga rioya qilmaslik holatlari to'g'risida xabar berishga faol undaydi.

Monitoring holati: Faol ravishda nazorat qilinadi. Murojaat qabul qilinganligi to'g'risidagi avtomatik tizim xabari yoki rasmiy tasdiq murojaat kelib tushganidan keyin 7 ish kunidan kechiktirmagan holda yuboriladi.

Mexanizmga murojaat qilish imkoniyatidagi to'siqlarni bartaraf etish hamda uning samaradorligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida "O'zTMK" AJ quyidagi majburiy operatsion talablarni belgilaydi:

- **Maxfiylikni ta'minlash choralari:** Barcha taqdim etilgan xabarlar va xabar beruvchi shaxsning shaxsini aniqlashga oid ma'lumotlar qat'iy maxfiylik asosida ko'rib chiqiladi. Ish bo'yicha hujjatlar faqat vakolat berilgan muvofiqlik (compliance) bo'yicha menejerlar uchun ochiq bo'ladi.
- **Tazyiqlarga nisbatan muhosasizlik:** "O'zTMK" har qanday shakldagi tazyiqlarga, jumladan, tahdidlar, chetlashtirish, tijoriy jarimalar yoki shartnomani bekor qilish kabilarga nisbatan mutlaqo muhosasizlik (zero-tolerance) siyosatini qo'llaydi.
- **Qonuniy huquqlarni saqlab qolish:** Mazkur ichki mexanizm orqali murojaat (shikoyat) yuborish xabar beruvchi shaxsning mustaqil ravishda davlat sud organlariga murojaat qilish yoki tashqi yuridik maslahat olish huquqidan voz kechishini anglatmaydi.

7. Siyosatni joriy etish va qayta ko'rib chiqish

- Siyosat barcha yetkazib beruvchilarga rasman yetkaziladi.
- Ushbu Siyosat talablari barcha shartnomalarga kiritilishi shart.
- Siyosat har yili qayta ko'rib chiqiladi.
- O'zgartirishlar xalqaro standartlar va bozor talablariga muvofiq amalga oshiriladi.